

REFLEKSIV KOMPONENTNING TALABALAR GAPIRISH KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI AHAMIYATI

Jalilova Guzal G'ulomovna

NavDPI Ingliz tili amaliy kursi kafedrası

3-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada filologiya yo'nalishi talabalarining ingliz tilida gapirish kompetensiyasini takomillashtirishda reflektiv komponentning o'ziga xos jihatlari tahlili va ilmiy tadqiqot bo'yicha berilgan tavsiyalar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Reflektiv komponent, gapirish kompetensiyasi, jismoniy, aqliy, hissiy refleksiya, o'z-o'zini baholash (self-reflection), o'zaro baholash (peer-reflection).

Talabalarda gapirish kompetensiyasini takomillashtirishda reflektiv komponent muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. O'zbek tilining izohli lug'atida berilgan ta'rifga ko'ra, refleksiya- lotincha, "reflexio" so'zidan olingan bo'lib, "ortga qaytish, aks etish" degan ma'noni anglatib, u kishining o'z hatti-harakatlari va ularning asoslarini tushunib yetishi, fahmlashiga qaratilgan nazariy faoliyat; bilishning alohida bir shakli¹. Lingvistikada til refleksiyasi deganda, shaxsning o'z nutqiy faoliyatini tafakkur qilishi tushuniladi². E.M. Boyd ta'rifiga ko'ra, refleksiya mental jarayon bo'lib, u o'rganuvchining bajargan tajribasini uning shaxsiy bilimiga aylantirishga ko'maklashadi; o'rganuvchining u hissiy va kognitiv holatini o'zaro aloqasini yaxshilaydi³.

Refleksiyaning ta'limdagi o'rniga XX asrning birinchi yarmida alohida ahamiyat qaratila boshlandi. Bunda Jon D'yuning xizmati katta bo'lib, olim ta'limda "rutin" va "reflektiv" xatti-harakatlarni bir-biridan ajratib tavsiflab beradi. Unga ko'ra "rutin" harakatlari- bu odat tusiga kirgan, sistemaga solinmagan harakatlar bo'lsa, "reflektiv harakatlar"ga esa bajaruvchini maqsadga erishish uchun rejalashtirishga, oldindan taxmin qila olishga undovchi amllar kiradi. Jon D'yui refleksiyaning 2 turini ajratadi: harakat davomidagi refleksiya (reflection-in action), tugagan harakatlar bo'yicha refleksiya (reflection-on action)⁴. Keyinchalik D.A. Shen (Schon) uchinchi turni ham ishlab chiqdi "keyingi harakatlar bo'yicha refleksiya" (reflection-for action)⁵. Mazkur

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashtiyoti. 380-b.

² Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. Издание 5-е, испр. и доп.- Назрань: ООО "Пилигрим", -2010. -С. 306.

³ Boyd E.M. reflective learning: key to learning from experience/ E.M. Boyd, A.W. Fales//Journal of Humanistic Psychology.- 1983.- № 23.- -P. 99-117.

⁴ Dewey J. (1933). How we think: a restatement of the relation of reflective thinking to the educative process. Boston: Heath and Company.

⁵ Schon D.A. (1983). Reflective practitioner: how professionals think in action. New York: Basic Books, inc.,

refleksiya turlari o'qituvchilar uchun ishlab chiqilgan. Bizning nazarimizda esa, bu turlarni talabalar uchun ham qo'llash mumkin. Jumladan, ingliz tili darslarida filolog talabalarning o'z-o'zini baholash (self-reflection) jarayonini mazkur uch tur bo'yicha tashkillashtirish ularning gapirish kompetensiyasini oshirishda samarali natija beradi.

Ye.A. Sviridovaning takidlashicha, ta'limda refleksiyaning quyidagi ko'rinishlari mavjud: jismoniy refleksiya (ulgurish- ulgurmaslik), sensor refleksiya (o'zini qulay yoki noqulay his qilish), aqliy refleksiya (nimani angladi, nimani tushunmadi, qanday qiyinchiliklarga duch keldi)⁶.

Biz filolog talabalarning gapirish kompetensiyasini yaxshilashda mazkur refleksiya turlarini takomillashtirilgan holatda tadbqiq qilishni lozim topdik (1-jadvalga qarang):

1-jadval

Filolog talabalarning gapirish kompetensiyasini baholashdagi refleksiya turlari

Jismoniy refleksiya	gapirish tezligi, ovoz balandligi, tana harakatlari, mimikalar qay darajada qoniqarli amalga oshirilganligi
Sensor (Hissiy) refleksiya	gapirish jarayonida o'ziga bo'lgan ishonch, hotirjamlik yoki qo'rquv, ikkilanish, holsizlik, uyalish kabilar qay darajada bo'lganligi.
Aqliy (bilim) refleksiya	leksik, grammatik va talaffuzga oid bilimlarni qo'llashdagi yutuq va kamchiliklar.

Bizning nazarimizda, mazkur refleksiya turlarini qo'llash talabalarning o'qituvchi yoki guruhdoshlari sezmagani kamchilik va yutuqlarini anglashiga yordam beradi. Xususan, hissiy jarayonlarni faqatgina gapiruvchining o'zigina yaxshi angalay oladi.

Quyidagi jadvalga talabalar topshriqlardan so'ng yuqoridagi uchta tur bo'yicha o'zlarining yutuq va kamchiliklarini yozishadi:

2-jadval

“Self-reflection” baholash shaklining tarkibiy elementlari

Jismoniy	baho	Hissiy	baho	Aqliy (Bilim)	baho
Gapirish tezligi		Hotirjamlik		Leksik	
Ovoz balandligi		Ishoch		Grammatik	

⁶ Свиридова Е.А. Значение рефлексии и самооценки в изучении иностранных языков. //Омский институт (филиал) ФГБОУ ВПО “РЭУ им. Г.В. Плеханова”. -2015.- С. 110-113.

Tana harakatlari	Qo'rquv yo'qligi	Talaffuz
Mimikalar	Ikkilanish yo'qligi	
	Tortinchiqlik yo'qligi	
Qo'shimcha izohlar:	Qo'shimcha izohlar:	Qo'shimcha izohlar:

Mazkur jadvaldan ingliz tili darslarida filolog talabalarning gapirish kompetentsiyasini o'z-o'zini baholash maqsadida foydalanish mumkin. Bunda talabalar ma'lum bajarilgan gapirishga oid mashq yoki topshiriqdan so'ng, avvalo, jadvaldagi gapirish elementlarini qay darajada namoyon qilganliklarini baholashadi. Keyin esa, qo'ygan baholarining sabablarini kengroq yozishadi. Aksariyat o'qituvchilar reflektiv topshiriqlarni darsning oxirgi qismida yoki darsdan tashqari uyga vazifa shaklida berishadi. Bu talabalarning reflektiv topshiriq turiga qarab, dars, biror topshiriq, o'qituvchining pedagogik mahorati, sherigi haqida umumiy xulosalar berish uchun samaralidir. Biroq shuni ham e'tiborga olish muhimki, talaba gapirishga oid topshiriq davomida o'zi qilgan xato va kamchiliklarini yoki yutuqlarini dars oxirida eslay olmasligi yoki diqqati chalg'ishi natijasida ularga e'tiborsizlik qilishi mumkin. Shuni inobatga olgan holda, biz "self-reflection" jarayonini aynan har bir gapirishga oid topshiriqdan so'ng bajarilishi ma'qul deb hisoblaymiz. Buning uchun har bir mashq va topshiriqdan so'ng talabaga biroz vaqt beriladi (masalan, 2-5 min). Natijada, talaba o'ziga adekvat baho berishni boshlaydi. Bundan tashqari, bu usul orqali kelajakda ham ingliz tilidagi gapirish kompetentsiyasining qay darajada yaxshilanayotganini shaxsan o'zi nazorat qilishni davom ettirishi mumkin.

N. Falchikov refleksiyaning 3 turini ajratadi - "self-reflection" (o'z-o'zini baholash), "peer-reflection" (o'zaro baholash) va "teacher-reflection" (o'qituvchi tomonidan berilgan refleksiya)⁷. "Flipped classroom" modelida darslarda asosan guruhli topshiriqlar bajarilishini inobatga olib, mazkur turlardan "peer-reflection" hamda "self-reflection"ni qo'llash samaraliroqdir. Guruhli topshiriqlarda yakuniy natijadadan tashqari, talabalarning jarayondagi ishtirokini baholash ham muhimdir. H.Somervell ta'kidlashicha, o'qituvchi guruhli topshiriqlarda yakuniy natijaningina baholay oladi, jarayonni emas⁸. Talabalarning jarayondagi ishtirokiga ularning taqsimlangan vazifalarini qay darajada yaxshi bajarganligi, o'z vaqtida bajarganligi,

⁷ Falchikov N. (1986). Product comparisons and process benefits of collaborative peer group and self-assessments. *Assessment and evaluation in Higher Education* 11 (2), 146-166.

⁸ H.Somervell. (1993). Issues in Assessment, Enterprise and Higher Education: the case for self-peer and collaborative assessment. *Assessment and evaluation in Higher Education*. Volume 18. Issue 3. P- 221-233.

ijodkorligi kabi omillar kiradi. "Self-reflection" da talabalar o'zlarining ishini berilgan mezoniga, sheriklarining ishiga solishtirgan holda baholaydi. Bundan tashqari, ular o'zlarining topshiriq jarayonida qanday qobiliyatlarini rivojlantirganligini ham baholashadi. "Peer-reflection" "self-reflection" ga qaraganda ko'proq mas'uliyatni talab qiladi. Sababi, boshqaning ishini yoki ishtirokini baholashda talabdan ko'proq sinchkovlik va bilim talab qiladi. Bu esa ularning kognitiv qobiliyatining (tushunish, eslab qolish, analiz va sintez qilish) sezilarli darajada o'sishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilish mumkinki, filologiya yo'nalishi talabalarining gapirish kompetentsiyasini takomillashtirishda reflektiv baholash turlarini qo'llash samaralidir. Mazkur komponent talabalar ichki motivatsiyasini uyg'otishga va chet tilida gapirish kompetentsiyasini takomillashtirish jarayonida shaxsiy nazoratni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashtiyoti. 380-b.
2. Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. Издание 5-е, испр. и доп.- Назрань: ООО "Пилигрим", -2010. -С. 306.
3. Falchikov N. (1986). Product comparisons and process benefits of collaborative peer group and self-assessments. *Assessment and evaluation in Higher Education* 11 (2), 146-166.
4. Свиридова Е.А. Значение рефлексии и самооценки в изучении иностранных языков. //Омский институт (филиал) ФГБОУ ВПО "РЭУ им. Г.В. Плеханова". -2015.- С. 110-113.
5. Boyd E.M. reflective learning: key to learning from experience/ E.M. Boyd, A.W. Fales//*Journal of Humanistic Psychology*.- 1983.- № 23.- -P. 99-117.
6. Dewey J. (1933). *How we think: a restatement of the relation of reflective thinking to the educative process*. Boston: Heath and Company.
7. Schon D.A. (1983). *Reflective practitioner: how professionals think in action*. New York: Basic Books, inc.,
8. Somervell H.. (1993). *Issues in Assessment, Enterprise and Higher Education: the case for self-peer and collaborative assessment*. *Assessment and evaluation in Higher Education*. Volume 18. Issue 3. P- 221-233.
9. Wenny S.J., Fajar R. (2019). The effect of peer assessment towards students' speaking skill at semester II of STIE Muhammadiyah Jambi. *CELTIC: A Journal of Culture, English language Teaching, Literature & Linguistics*. ISSN: 2356-4001, E-ISSN: 262-9158, Vol.6, No.2, December 2019.